ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ERGASHOVA SADOQAT ESHMAMAT QIZI

ESHQOBIL SHUKUR SHE’RIYATIDA SO‘ZNING BADIIY VAZIFASI

10.00.02- O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 89976.34

Filologiya fanlari bo‘yicha falasafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in Philology Sciences

Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по филологическим наукам

Ergashova Sadoqat Eshmamat qizi
Eshqobil Shukur she’riyatida so‘zning badiiy vazifasi 3

Ergashova Sadoqat Eshmamat qizi
The artistic function of the word in the poetry of Eshqabil Shukur 25

Эргашова Садокат Эшмамат кизи
Художественная функция слова в поэзии Эшкабила Шукура 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ 53

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ERGASHOVA SADOQAT ESHMAMAT QIZI

ESHQOBIL SHUKUR SHE’RIYATIDA SO‘ZNING BADIIY VAZIFASI

10.00.02- O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/ Fil2475 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtiriladi.

Ilmiy rahbar:	**Pardayev Quldosh Uzaqovich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Yakubov Islamjon Axmedjanovich** filologiya fanlari doktori, professor
	Tog‘ayeva Gulandom Jummayevna filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc. 03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “16” aprel soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (338 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “5” 04 kuni tarqatildi.
(2025-yil “5” 04 dagi 01 raqamli reestr bayonnomasi)

H.A. Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

S.X. Muhamedova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

N.A. Jabborov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyoti va adabiy-estetik tafakkuri rivojida ijodkor she'riyatidagi shakl va mazmunning so'z estetik qimmatiga ta'siri, poetik tafakkur tadriji, ijodkor mahorati kabi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishdagi ilmiy ishlarni adabiyotshunoslik oldidagi bugungi talablar darajasida davom ettirish va takomillashtirish har qachongidan ham dolzarbdir. Ma'lumki, Inson tafakkurining yangilanishida, uning ongiga ma'lum bir g'oyani singdirishda hech qaysi soha adabiyotchalik quvvat va imkoniyatga ega emas. Bu esa yangi XXI asr inson tafakkuri taraqqiyotiga, uning tez o'sishi va yangilanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Dunyo adabiyotida so'zning badiiy vazifasi obraz va ramzlar misolida yangicha tahlili va tarixiy evolyutsiyasini teran anglashga oid tadqiqotlar anchagina. Ijodkor she'riyatining janriy xususiyatlari va mavzu ko'lamini o'rganish muayyan davr she'riyatining spetsifik tabiatini aniqlashda ham muhim omildir. Adabiyotning badiiy vazifasini o'rganish, adabiy muhit, ijtimoiy-ma'naviy hayot muammolarini teran anglash, insonning poetik tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Haqiqiy san'atkorning vazifasi esa insoniyatning kelajagini ta'minlovchi umidbaxsh g'oyalarni ilgari surish, ular dunyoqarashida ezgulik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni ifodalashga xizmat qiladigan ibratli obrazlarni yaratishdan iboratdir.

Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida kechayotgan janr va shakliy izlanishlar shunchaki ijodiy tajriba-poetik eksprement namunalari bo'lib qolayotgani yo'q. Muttasil kechayotgan janr va shakliy izlanishlar shoirlarning yurak amriga, ma'naviy-intellektual ehtiyojiga aylanganligi sababli ham yaxshi natijalar bermoqda. Darhaqiqat, shoirlar ijodida odamdagi odamiylikni kashf etish ustuvor tamoyilga aylanib bormoqda. Yangi o'zbek she'riyatida o'zining samimiy tili o'ynoqi va mahzun, shiddatli va sokin ohanglari bilan badiiy tafakkurimiz miqyosini kengaytirayotgan va hozirgi o'zbek she'riyatida o'z uslubi, taafakkuri va qarashlari bilan dunyoqarashimizga o'zgarish kiritgan shoirlar ijodi adabiy-estetik qimmatga ega. "Bundan yuz yil muqaddam buyuk o'zbek shoiri Abdulhamid Sulaymon o'g'li – Cho'lpon: "Adabiyot yashasa, millat yashar!" degan otashin da'vat bilan maydonga chiqqan edi. Hayot va tarix sinovlaridan o'tgan teran ma'noli bu so'zlar bugun ham o'z ahamiyati va qimmatini yo'qotgan emas. Darhaqiqat, adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi"[1]. Istiqlol yillarida yozilgan asarlar badiiy-estetik saviyasi ham, mavzu mundarijasi ham, tasvirlash va bayon etish usuli ham rang-barang biri ikkinchisini takrorlamaydi. Bu davrda ijod qilgan ko'plab ijodkorlarda farqli o'laroq Eshqobil Shukur o'ziga xos ohang va uslub bilan adabiyotimizga kirib keldi. Uning bitganlari xalqona dard, xalqchil hamda o'zgacha yangi topilmalar hisoblangan obrazlar bilan ajralib turadi. Eshqobil Shukur she'riyatida xalq og'zaki ijodiga xos sodda, lo'nda ifoda usuli folklor ohanglari bilan uyg'unlashib ketadi. U izlanuvchan, iste'dodli va ko'p qirrali shoir sifatida o'zbek she'riyati rivojida o'z o'rniga ega. Ijodkor haqida dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar,

[1]Мирзиёев Ш.М. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017, № 153.

adabiy portretlar yaratilgan bo‘lsa-da, ammo shoir ijodining asosiy xususiyatlari jumladan, obrazlar va ramzlar, so‘zning vazifasi, xalqona ohanglar tasviri kabi ko‘plab masalalar alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan emas. Bu esa mazkur dissertatsiyaning nechog‘lik dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019- yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi, 2020-yil 20-mayda Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga tashrifi chog‘ida adabiyotning ta’sir kuchini oshirish bo‘yicha topshiriqlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek adabiyotshunosligida lirik asarlar bo‘yicha yozilgan tadqiqotlarda badiiy obrazlar talqini, mavzu ko‘lami, lirik kechinmalar, xalqona pafos hamda folklor an’analari yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan[2]. Ammo Eshqobil Shukur she’riyatining mavzu ko‘lami, janriy

[2] Шарафиддинов О. Замон – қалб –поэзия. –Тошкент: Ўз Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1962; Ғафуров И. Лириканинг юраги. Адабий ўйлар. –Тошкент: Ёш гвардия, 1982; Қаҳрамонов Қ. Адабий танқид: янгиланиш жараёнлари. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009; Мамажонов С. Шеърият баҳсида. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1982; Акрамов Б. Шеърият гавҳари (Лирикада образ муаммоси). –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979; Қурбонбоев И.А. 90-йиллар ўзбек шеъриятида образлилик. Филол. фан. номз...дисс. –Тошкент: 2005; Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърияти бадиий тафаккури тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри...дисс. автореф. –Тошкент: 2017; Жабборов Н. Маърифат надир? –Тошкент: Маънавият, 2010; o‘sha muallif. Адабиёт ва миллий маънавият. –Тошкент: Маънавият, 2015; o‘sha muallif. Замон. Мезон. Шеърият. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015; o‘sha muallif. “Ўткан кунлар”да миллий руҳ ифодаси // Филология масалалари. –Тошкент: 2020, № 2. –Б. 35; Каримов Б. Жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд. –Тошкент: Университет, 2000; Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. –Тошкент: Фан, 2006; Ғаниев И., Афоқова Н. Озод руҳ фалсафаси. –Тошкент: Фан, 2007; Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологиясига доир// Ўзбек тили ва адабиёти.-1980. –№4. –Б. 37-45; Собиров О. Фольлор анъаналар ҳақида мулоҳазалар// Ўзбек тили ва адабиёти.-1968. –№6. –Б. 24-27; Афоқова. Н. Абдулла Орипов лирикасида бадиий санъатлар. Филол. фан. номз…. дисс. – Тошкент, 1997. – Б. 14; Шарипова Л. XX асрнинг 70-80-йиллари ўзбек шеъриятида фолклоризмлар. Филол. фан. д-ри...дис. автореф. –Тошкент, 2008; Пардаев З. Истиклол даври шеъриятида халкона пафоснинг янгиланиши. Филол.фан.б. фалс.док...(PhD) дисс.автореф. –Тошкент, 2020; Тажибаева Л. Янги ўзбек шеърияти генезиси ва тараққиёт тамойиллари. Филол.фан.б. фалс.док. ...дисс.автореф. –Урганч, 2023; Mamayusupova S. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida folklorizmning o‘rni. Filol. fan.b. fals.dok...(PhD) diss.aftoref. –Jizzax, 2024; Ўсарова Л. Абдулла Орипов шеъриятида миллий руҳ ифодаси. Филол.фан.б.

xossalari, obraz va ramz qo‘llash hamda badiiy tasviriy vositalardan foydalanish mahorati masalasi istiqlol adabiyotshunosligida maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan emas. Biroq shoir ijodining ba’zi qirralari haqida tadqiqotlar mavjud. Jumladan, Uldona Abdurahmonovaning “Eshqobil Shukur she’riyatida “hayrat” kategoriyasi va uning binarlik tabiati” mavzusidagi dissertatsiyasida[3] shoir ijodida qo‘llangan lirik obrazlar, metafora va istioralar, Dadaxon Muxammadiyevning “Zamonaviy o‘zbek she’riyatida metaforik tafakkur tabiati (Eshqobil Shukur va Abduvali Qutbiddin she’rlari asosida)” dissertatsiyasida[4] Eshqobil Shukur she’riyatining metaforik tafakkur tabiati masalalari tadqiq qilingan bo‘lsa, Iroda Ernazarovaning “Muallif so‘z ijodkorligining lisoniy-kognitiv tahlili (Eshqobil Shukur ijodi misolida)” mavzusidagi dissertatsiyasi[5] hamda Nigora Erkinovaning “Eshqobil Shukur she’rlarining lingvopoetik tadqiqi” mavzusidagi dissertatsiyasida[6] tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Shuningdek, Abdulla Ulug‘ov[7], Qozoqboy Yo‘ldoshev[8], Nurboy Jabborov[9], Bahodir Karimov[10], Qurdosh Qahramonov[11], Saydi Umirov[12], Rustam Musurmon[13], Komil Niyoz[14] kabi adabiyotshunoslarning kitob, maqola va adabiy suhbatlarida shoirning poetik mahorati, obrazlar tizimi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Bundan tashqari, shoir ijodi badiiyati haqida Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon, Asqad Muxtor, Halima Xudoyberdiyeva, Erkin A’zam, Mirzo Kenjabek, Xurshid Davron, Mahmud Sa’diy kabi ijodkorlar fikr-mulohazalar[15] yuritgan. Shuningdek, Odil Yoqubovning “Karvon qo‘ng‘irog’i”[16] maqolasida, Usmon Azimning “O‘zbekiston adabiyoti san’ati” gazetasida Eshqobil Shukurning ilk she’rlari uchun yozilgan so‘zboshisida[17] ijodkorning badiiy mahorati, so‘z qo‘llash uslubi haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Mazkur dissertatsiyada yuqoridagi ishlardan farqli o‘laroq mavzu ilk bor monografik yo‘sinda o‘rganilmoqda.

фалс.док...(PhD) дисс.автореф. –Тошкент: 2020; Абдулҳакимова О. Абдулла Орипов адабий-эстетик қарашлари. Филол.фан.б.фалс.док...(PhD) дисс. автореф. –Тошкент, 2022; Давлатова А. Абдулла Орипов шеъриятида поэтик тафаккур тадрижи. Филол. фан. д-ри. ...дисс. –Тошкент, 2022.

[3] Abdurahmonova U. Eshqobil Shukur she’riyatida “hayrat” kategoriyasi va uning binarlik tabiati: Filol. fan. b. fals. dok...(PhD) diss. – Toshkent, 2024.

[4] Muxammadiyev D. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida metaforik tafakkur tabiati (Eshqobil Shukur va Abduvali Qutbiddin she’rlari asosida): Filol. fan. b. fals. dok...(PhD) diss. aftoref. –Toshkent, 2024.

[5] Эрназарова И. Муаллиф сўз ижодкорлигининг лисоний-когнитив таҳлили (Эшқобил Шукур ижоди мисолида). Филол. фан. б. фалс. док...(PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2022.

[6] Erkinova N. Eshqobil Shukur she’rlarining lingvopoetik tadqiqi. Filol. fan. b. fals. dok...(PhD) diss. aftoref. – Toshkent, 2023.

[7] Улуғов А. Қалб қандили: адабий-танқидий мақолалар. Адабий портрет. Адабий-танқидий очерк. –Тошкент: Akademnashr, 2013. –288 б.

[8] Йўлдошев Қ. Ўзгаришлар доимийлиги // Шарқ юлдузи. –Тошкент, 2013. № 3. – Б. 133-136.

[9] Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърият. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 46.

[10] Каримов Б. Кўнглимни тошга ёрдим // Шарқ юлдузи. –Тошкент, 2022. № 9. – Б. 109-116.

[11] Қаҳрамонов Қ. Қушдан илдиз олдим қанотни гулдан // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. –Тошкент, 2014. №16. – Б. 4.

[12] Умиров С. Ашъорлари эш, қобил ижодкор // Ҳуррият. –Тошкент, 2016, 7-сентябр. № 36.

[13] Мусурмонов Р. Қақнус минқоридан таралган наво // Ёшлик. –Тошкент, 1991. №8. – Б. 46.

[14] https://oyina.uz/uz/article/70.

[15] https://kh-davron.uz/yangiliklar/eshqobil-shukur-haqida-eshqobil-shukur-sheriyat-kechasi.html.

[16] Ёқубов О. Карвон қўнғироғи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. –Тошкент,1988, 29 апрелъ.

[17] Азимов У. Оқ йўл. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. –Тошкент,1984, 19 декабрь.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini o'rganishning konseptual muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Eshqobil Shukur lirikasi misolida ijodkorning obraz yaratish mahorati, xalqano ohanglar, badiiy tasviriy vositalarni qo'llash uslubini yaxlit o'rganish, ijodkorning so'z qo'llash salohiyati va uning badiiy vazifasini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Eshqobil Shukur she'riyatida shakl va mazmunning so' z estetik qimmatiga ta'sirini tekshirish, lirikasining mavzuiy tasnifi va janriy xosalarini ilmiy asoslash, she'rlarining g'oyaviy yo'nalishi, kompozitsion rang-barangligi, xalqona ohanglarga alohida e'tibor berilganligini dalillash;

shoir lirikasidagi obrazlar va ramzlar tizimini tasnif hamda tahlil qilish, shoirning obraz yaratish mahoratini ilmiy asoslash, obrazlarda ijodkor ruhiyati uyg'unligi va o'zbek xalqi adabiy-estetik tafakkuri rivojiga qo'shgan hissasini ochib berish;

ijodkorning badiiy san'atlardan foydalanish mahoratini ko'rsatish, badiiy tasviriy vositalarda shoir ruhiyatining mutanosibligini dalillash va she'rlarida folklor an'analarining yoritilishini ilmiy asoslash;

Eshqobil Shukur lirikasida tarixiy o'tmish va ajdodlar obrazining metaforik aks ettirilishida poetik vositalardan mahorat bilan foydalanib, original obrazlar yaratganini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Eshqobil Shukurning "Yurakni o'rganish" (1984), "Sochlari sumbul-sumbul" (1988), "Tungi gullar" (1989), "Yashil qushlar" (1995), "Hamal ayvoni" (2003), "Ko'z yumib ko'rganlarim" (2013) kabi she'riy to'plamlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Eshqobil Shukur lirikasida poetik shakl va mazmunning mutanosibligi, obrazlar, ramzlar tasnifi va talqini, badiiy san'atlar tahlili, xalqona ohanglar, diniy-ma'rifiy, xalq va millat, erk va ozodlik tabiat hamda ishqiy mavzudagi she'rlari talqini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda biografik, qiyosiy-tarixiy, germenevtik, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Eshqobil Shukur she'rlari misolida so'zning badiiy vazifasi va estetik mohiyati dalillanib, shoir lirikasining mavzuiy tasnifi va janriy xossalari aniqlangan va she'rlarining g'oyaviy yo'nalishi, kompozitsion rang-barangligi, xalqona ohanglarga alohida e'tibor berilganligi ochib berilgan;

shoir lirikasida obrazlar hamda ramzlar tizimi aniqlanib, shoirning obraz yaratish mahorati asoslangan va obrazlarda ijodkor ruhiyati uyg'unligi va o'zbek xalqi adabiy-estetik tafakkuri rivojiga qo'shgan hissasi misollar orqali aniqlangan;

ijodkorning badiiy san’atlardan foydalanish mahorati aniqlanib, badiiy tasviriy vositalarda shoir ruhiyatining mutanosibligi dalillangan va she’rlarida folklor an’analarining yoritilish masalasi misollar asosida isbotlangan;

Eshqobil Shukur lirikasida tarixiy o‘tmish va ajdodlar obrazining metaforik aks ettirilishi dalillangan va shoir poetik tasviriy vositalardan mahorat bilan foydalanib, poetik obrazlarning badiiyligini ta’minlaydigan tazod, mubolag‘a, talmeh, o‘xshatish, sifatlash kabi turli badiiy san’atlar qo‘llab original she’rlar yaratgani ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Eshqobil Shukur lirikasining asosiy g‘oyasi xalqona badiiy tafakkur, o‘zbek millati tarixidagi ijtimoiy hodisalar bilan bog‘liqligi, mazkur poetik hodisaning milliy zaminga egaligi ilmiy tadqiqot va o‘quv jarayoni uchun xizmat qilishi dalillangan;

shoir lirikasining milliy tarix, ijtimoiy ideal va badiiy tafakkurning adabiyotshunoslik kontekstida talqin etilishi natijasida qadriyatlar va ajdodlar obrazining tasviriga oid ilmiy xulosalar yosh avlod ma’naviyati, ilmiy va badiiy tafakkuri takomili uchun amaliy ahamiyat kasb etishi isbotlangan.

shoir lirikasida obrazlar hamda ramzlar tizimi tasnifi va tahlili aniqlanib, shoirning obraz yaratish mahorati, obrazlarda ijodkor ruhiyati uyg‘unligining aks etishi va badiiy-estetik o‘ziga xosligi ilmiy asoslangan.

Eshqobil Shukurning turli badiiy san’atlardan foydalanish mahorati, badiiy tasviriy vositalarda shoir maqsadining namoyon bo‘lishi va she’rlarida folklor an’analarining yoritilishi masalasi yosh avlod ilmiy va badiiy tafakkuri takomili uchun muhim ahamiyat kasb etishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, qo‘llanilgan ilmiy usullar va nazariy ma’lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida tahlil va talqin qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati Eshqobil Shukur biografiyasiga, she’riyatiga oid tadqiqotlarda erishilgan nazariy qarashlarni yangilashi va to‘ldirishi, she’rlarida mavzu, janr va obrazning o‘rni, ramz va badiiy san’atlar hamda badiiy-estetik vazifasiga doir ilmiy-nazariy qarashlarni boyitishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati zamonaviy o‘zbek she’riyatining nazariy asoslari hamda she’riyatda so‘zning badiiy vazifasiga doir ilmiy tadqiqotlar uchun material bera olishi, oliy o‘quv yurtlarining “Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)” ta’lim yo‘nalishida “Adabiyot nazariyasi”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” kabi fanlardan ma’ruzalar o‘qishda va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Eshqobil Shukur she’riyatida so‘zning badiiy vazifasi tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Eshqobil Shukur she’rlari misolida so’zning badiiy vazifasi va estetik mohiyati, shoir lirikasining janriy xossalari va she’rlarining g‘oyaviy yo‘nalishi, kompozitsion

rang-barangligi, xalqona ohanglarga alohida e’tibor berilganligiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 27-noyabrdagi 04/1-3396-son ma’lumotnomasi). Natijada, ijodkorning badiiy san’atlardan va obrazlardan foydalanish mahorati, badiiy tasviriy vositalarda shoir ruhiyatining mutanosibli va she’rlarida folklor an’analarining yoritilish masalasiga oid xulosalar elektron platforma materiallarini boyitishga xizmat qilgan;

shoir lirikasida obraz va ramzlar tizimi aniqlanib, shoirning obraz yaratish mahorati asoslangani, obrazlarda ijodkor ruhiyati uyg‘unligi va o‘zbek xalqi adabiy-estetik tafakkuri rivojiga qo‘shgan hissasiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 27-noyabrdagi 04/1-3396-son ma’lumotnomasi). Natijada, shoirning badiiy tasviriy vositalardan foydalanish mahorati, obrazlar tasnifi, ijodkorning o‘zbek xalqi adabiy-estetik tafakkuri rivojiga qo‘shgan hissasiga oid ilmiy xulosalar elektron platforma materiallarini boyitgan;

shoir she’rlaridagi poetik obrazlarning badiiyligini ta’minlaydigan tazod, mubolag‘a, talmeh, o‘xshatish, sifatlash kabi turli badiiy san’atlar qo‘llangan original asarlaridagi milliy ruh masalasiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 27-noyabrdagi 04/1-3397-son ma’lumotnomasi). Natijada, Eshqobil Shukur she’rlari misolida so’zning badiiy vazifasi va estetik mohiyatiga oid ilmiy materiallardan elektron platforma materiallarini tayyorlashda foydalanilgan;

Eshqobil Shukur lirikasida tarixiy o‘tmish va ajdodlar obrazining metaforik aks ettirilishi va shoir poetik tasviriy vositalardan mahorat bilan foydalangan turli janrdagi she’riy asarlar tahliliga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 27-noyabrdagi 04/1-3397-son ma’lumotnomasi). Natijada, shoir lirikasining mavzuiy tasnifi va janriy xossalariga oid ilmiy materiallardan elektron platforma materiallari boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika hamda 6 tasi xorijdagi ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 139 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan bo‘lib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning dastlabki bobi **“Shakl va mazmunning so‘z estetik qimmatiga ta’siri”** deb nomlangan bo‘lib, birinchi paragrafida ***“Shoir she’rlarining shakl va janr xossalari”*** tadqiq qilingan. Qushning ikki qanoti bo‘lgani kabi badiiy asar ham ikki qanot – shakl va mazmun birligiga ega. Ular doimo bir-birini taqozo qiladi. Adabiyotshunoslikka doir asarlarni kuzatar ekanmiz, shakl va mazmunning birlamchi, ikkilamchilik xususiyatlari hamda komponentlarining tasnifi masalasida turlicha fikrlar mavjudliligini kuzatamiz. Demak, bu turfalik shakl-mazmun chegarasi hamda tarkibiy unsurlarga bo‘linishi shartli tushuncha degan xulosani beradi. Shunga qaramay, To‘xta Boboyevning mavzu va g‘oyani mazmun unsuri; tur, janr va she’r tuzilishini esa badiiy shakl hodisasi sifatida ajratishi[18] asosli ekanligini ko‘rsatadi. Bobning mazkur faslida shaklning asosiy unsurlari hisoblanmish janr xossalari, vazn va she’riy shakllar, ularning tadrijiy takomili masalalari Eshqobil Shukur she’riyati misolida ochib berildi. Unda Eshqobil Shukurning dastlabki to‘plamida ikkilik va to‘rtlik she’riy shakllar ustuvorlik qilsa-da, keyingi to‘plamlarida esa *masnaviy, musabba, murabba, muxammas, musaddas, mustasne’* shaklidagi va turli bandli she’rlar mavjudligi aniqlanib, shoir she’riyatining shakliy tadriji tadqiq qilingan. Jumladan, Shoir ijodida 8 ta muxammas uchraydi. Taxmis qilingan muxammas mavjud emas. Shoir muxammaslarining deyarli barchasi sarlavhaga ega. Sarlavhalar esa she’rdan ko‘zlangan poetik maqsadni ochib berish uchun xizmat qilgan. Eshqobil Shukur o‘z muxammaslariga “So‘nggi jadid”, “Ulg‘ayish”, “Xotiralar”, “Yo‘qlov”, “Alpomish” ohanglarida” kabi nomlarni qo‘yadi. Shoirning “Hamal ayvoni” to‘plamida 1 ta musaddas bo‘lib, “Subhi sahar”[19] deb nomlanadi. Shuningdek, “Hamal ayvoni” to‘plami to‘qqiz bandlik she’r shakli bilan yakunlangan, kitobning boshqa o‘rinlarida uchramaydi. She’riy shaklning **mustasne’** yoki **tasne’** deb nomlanuvchi bu turi ijodkor so‘z qudratining hosilasidir.

Eshqobil Shukur she’riyatining yana bir ko‘zga tashlanadigan jihati janrlarning turfaligidir. Ushbu faslda shoirning *marsiya, doston, qo‘shiq, bag‘ishlov, sonet*

[18] Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 519.
[19] Шукуров Э. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 270.

janridagi she’rlari ham tadqiq etildi. Shoir ijodidagi marsiyaning yig‘i-yo‘qlov turi lirik qahramonning o‘z tilidan aytiluvchi “Mengim momoning yo‘qlovi”[20] deb nomlanadi. Mazkur marsiyada inqilob davrida vatanidan surgun qilingan, xorijda o‘z-o‘ziga yo‘qlov aytib, dunyodan o‘tgan Mengim momoning giryasi-yig‘isi o‘z aksini topgan bo‘lib, she’rga barmoq vaznining 7 lik turkumi tanlangan. Chunki, qisqa bo‘g‘inli bandlar emotsional va ruhiy holat shiddatini ochib berishda qo‘l keladi. 10 banddan iborat ushbu marsiya muxammas shaklida yozilgan, faqatgina 9-band mustasne’ shaklida. Har band oxirida ***“Voy, Mengim-a, sho‘r Mengim. Uvv!.. Uv!!!”*** misrasi naqorat shaklida keladi. Bu misra xalq og‘zaki ijodi ta’sirida yuzaga kelib, marsiyaning hasrat darajasini oshirib berishga xizmat qiladi.

Shoir ijodida nisbatan murakkab bo‘lgan g‘arb she’riyatiga xos sonet janrining go‘zal na’munasini ko‘rishimiz ijodkor mahoratning yana bir cho‘qqisi sifatida bo‘y ko‘rsatadi. “Tilsiz shovullaydi uzun sochlaring…”[21] misralari bilan boshlanuvchi mazkur she’r 4 banddan iborat bo‘lib 1-band a-b-a-b, 2-band d-e-f-e, 3-band g-h-g, 4-band h-g-h shaklda qofiyalanib kelgan.

Sonetning asosiy talabi 4 qismdan tashkil topib, dastlabki ikki qism to‘rt misradan, oxirgi ikki qism uch misradan iborat bo‘lishini hisobga olib aytish mumkinki, Eshqobil Shukurning ushbu soneti janr talablariga to‘liq javob bera oladi.

Bobning ikkinchi paragrafida ***“Shoir she’riyatining mavzuiy tasnifi”*** tadqiq etilgan. Adabiyot-inson ongi va shuurini to‘lqinlantiradigan, adabiy-estetik dunyoqarashini boyitadigan alohida hodisadir. Adabiyotning barhayotligi ijodkor mahorati va badiiy tafakkurining nechog‘lik ko‘lamdor ekanligi bilan o‘lchanadi. Ta’kidlash joizki, zamon o‘tishi, davr yangilanishi bilan ijodkorlarning dunyoqarashida ham evrilishlar kuzatiladi va bu o‘z o‘rnida asarlariga ham ko‘chadi. XX asr ijodkorlari asarlarida ana shunday turfa ohang va mavzularni ko‘rishimiz mumkin. Shunday ijodkorlardan biri O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Eshqobil Shukurdir. Shoir XX asrning 80-yillarida adabiyot maydoniga kirib kelgan yangi avlodning peshqadamlaridan sanaladi. Adabiyotshunos Qurdosh Qahramonov ta’biri bilan aytganda: “Saksoninchi yillar avvalida ijod maydoniga kirib kelgan yosh iste’dod sohibi Eshqobil Shukur she’rlari asosini botiniy olam manzaralari tashkil etdi. Bu olam turfa xil timsol-u tasvirlar, shakllarda namoyon bo‘lsa-da, bosh maqsad-muddao o‘zgarmadi — ko‘ngilga qarab evrilish, o‘zlikni izlash yetakchi mavzu bo‘lib qoldi”[22]. Eshqobil Shukur she’riyatiga nazar solsak, unda bolalik xotiralari, inson va tabiat, tinchlik, el-yurtga muhabbat, xalq hayoti va qadriyatlar bilan bog‘liq so‘nmas adabiy mavzularning yangicha ifodalarini kuzatamiz.

She’r mavzusi individual hodisa ekanligini hisobga olsak, har bir shoir o‘z asarlarini turli mavzularda bitadi. Zamon o‘zgarar ekan mavzular qamrovi ham kengayib boradi. Eshqobil Shukur she’rlarini mavzusiga ko‘ra quyidagicha tasnif qilish mumkin:

Vatan va millat mavzusidagi she’rlar;
erk va ozodlik mavzusidagi she’rlar;

[20] Шукуров Э. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 36.
[21] Shu muallif. Ko‘rsatilgan asar. – Б. 144.
[22] Қаҳрамонов Қ. Қушдан илдиз олдим қанотни гулдан // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. –Тошкент, 2014. №16. – Б. 4.

ishqiy mavzudagi she'rlar;
diniy-tasavvufiy mavzudagi she'rlar.

Eshqobil Shukurning 1988-yil nashr etilgan ilk "Sochlari sumbul-sumbul…" to‘plamidan o‘rin olgan 66 ta she’rning 10 ga yaqinida Vatan va millati, eldoshlari taqdiridan qayg‘urgan lirik qahramon ruhiy kechinmalariga guvoh bo‘lamiz. "Minnatdorchilik"[23] she’rida shoir o‘ziga xos bo‘lgan xalqona uslubni qo‘llaydi va millatdosh ma’nosida "eldoshlarim" undalmasini keltirgan holda she’rga yangi bir poetik ruh bag‘ishlaydi hamda eldoshlaridan minnatdorchilik tuyg‘ularini ochiq- oydin "aylanay" so‘zi orqali ifodalaydi:

Eldoshlarim…
Jon desa jon bergan, eldoshlarim,
Aylanay bergan jonlaringizdan.
Menga Vatan bergan, eldoshlarim,
Aylanay bergan Vatanlaringizdan.

Shoirning Vataniga bo‘lgan muhabbati badiiy bo‘yoqlarda tasvirlanadi. Keyingi misralarda "qo‘sh-qo‘sh ko‘ngillar", "juft-juft hurkak singillar", "davra-davra og‘a-inilar"ni bergan eldoshlariga minnatdorchilik tuyg‘ularini izhor eta turib, ularga tilak ham bildiradi. "Qadimgi bitik toshlarga yozuvlar" turkumining 5-qismidagi "O‘lmas askarlar"[24] she’rida notinch zamonning dahshatlari dastidan o‘z Vatanini kipriklarida ko‘tarib, ming azoblarni boshidan kechirgan, bosqinchilar tomonidan ezilgan xalqqa "haykal qo‘yadi". Shoirning ilk to‘plamidan o‘rin olgan "Orol"[25] to‘rtligi ham xalq birligi, birdamligini badiiy bo‘yoqlarda ifodalaydi.

Ta‘kidlash joizki, shoir ijodida erk va ozodlik mavzulari alohida tahlilni talab etadi. Sababi, Eshqobil Shukur bu mavzularni shunchaki qog‘ozga tushurmaydi, balki o‘quvchiga ozod ruh va erkin fikr berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Jumladan, 6 qismlik har bandi 9 misradan tashkil topgan "Ozodlik"[26] she’ri fikrimiz dalilidir. She’rning birinchi bandida *"Bir parcha yuragim erk deb bo‘zlagan"* misrasi butun she’rning yukini olgan. She’rning keyingi bandida ham ozodlik uchun kurashgan ammo nohaq qamalgan, umrining so‘ngiga qadar erkka tashna bo‘lib, "turma tuynugiga osilgan oyga eng so‘ngi kitobini yozgan" Qodiriy hamda "Sibir shamoliday uvillagan" Usmon Nosir obrazlari tasvirlanadi. Bu kabi ohoriy tashbehlar ikki ijodkorning hayot yo‘lini ko‘z oldimizda yaqqol gavdalantiradi. She’rning 5-bandida birgina to‘rtlik bilan "paxta siyosati" sabab o‘zligidan, erkidan, halovatidan, o‘z yashamidan ayrilgan qishloq odamlarining hayotini yangi kuyov obrazi orqali ochib beradi.

…Yoshligim oy kabi balqqan pallada,
Sirlar tabassumday gullagan palla...
Kuyovlik kunlarim qoldi dalada,
Chimildig‘im — dala, kelinim — dala.

Va nihoyat eng so‘ngi bandda "quyosh arzandasi, ko‘ngil hulkari" bo‘lgan ozodlik "yurak saharida ko‘rinish" beradi! Aynan uning ko‘rinishi tongga to‘g‘ri

[23] Шукуров Э. Сочлари сумбул-сумбул. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 10.
[24] Shu muallif. Ko‘rsatilgan asar – Б. 35.
[25] Shu muallif. Ko‘rsatilgan asar. – Б. 57.
[26] Шукуров Э. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 301.

kelgani ham bejiz emas. Tong bu yangi hayotning, yangi davrning lirik qahramon orzusidagi “erkin tong” ning boshlanishidir:

Yurak saharida ko‘rinish berding,
Quyosh arzandasi, ko‘ngil hulkari.
Keksaygan otamday men sari yurding,
Non reza –bolamday kelding men sari…

Ozodlikning lirik qahramonga keksaygan otasiday va bolasiday yuz kelishi tashbeh tarzda bekorga qo‘llanmagan. Bu yerda “keksa ota” o‘tmish ozodligi bo‘lsa, “bola” kelajak erkiga bo‘lgan ishonchdir.

Barcha ijodkorlarda bo‘lgani kabi shoirning ishq, sadoqat, mehr-muhabbat, sevgi mavzularidagi ichki dard bilan yozilgan she’rlari ham talaygina. Shoir bu tuyg‘uni yuksak darajaga ko‘taradi, uning turfa xil ohanglarini yuzaga chiqaradi. Masalan, “Sevgining bir kuni”[27] nomli she’rida hali hech kimda uchramaydigan ohang va takrorlardan mahorat bilan foydalanadi. Shoir ushbu she’rida misralar qariga chuqur ma’nolar yuklaydi. Yor ishqida bedor oshiq uchun vaqtning o‘tishi, hatto falakning aylanishi og‘irdek tuyiladi. Teraklar ham oshiqdek og‘ir-og‘ir silkinib kuylaydilar. Tonglar otishi ham sekinlashib ketgan, go‘yo butun yer yuzi oshiq hayollari bilan band, soat millari sekinlashgandek, hamma narsa shoshmasdan harakatlangandek. Shoir she’rlari tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini uning zamiridagi mazmun-ma’nodan anglash qiyin emas. “Nasoyimul muhabbatga sayr” turkumi xalqimiz uchun yuksak ma’rifiy ruhdagi she’rlardan iborat bo‘lib, turkumdan o‘rin olgan har bir misra diniy-tasavvufiy mohiyat bilan sug‘orilgan.Turkumining so‘nggi qismi shayx Zunnun Misriy haqida bo‘lib, 3 bo‘limdan iborat: **“Uch ilm hikmati”, “Surat va siyrat”, “Yashil o‘lim”.** “Uch ilm hikmati” qismida Ilm, Tavba, Muhabbat, Haqiqat istilohlariga ta’rif berib o‘tiladi.

Umuman olganda, shoir she’riyatining mavzular ko‘lami kengligi, she’rlarining go‘zal badiiy tasviriy vositalarga boyligi, shoir ohorli ifodalardan mahorat bilan foydalanganini kuzatish mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Obraz va ramzning nazmiy ifodasi”** deb nomlangan. Birinchi paragrafda ***“Shoir she’riyatida badiiy obraz takomili”*** masalasi ochib berilgan. Bilamizki, she’riyatning asosiy xususiyatlaridan biri obrazlilikdir. Eshqobil Shukur she’riyatida obrazlarning rang-barangligini kuzatamiz. U goh daraxt goho maysa, gul bo‘lib, gohida esa hurkak ohu va yirtqich yo‘lbars, beozor qushlar, kuylovchi-yig‘loq toshlar hamda gullayotgan nay sadolari bo‘lib, she’rga ruh olib kiradi. O‘sha ruh – obraz demakdir. Shoir ijodini kuzatar ekanmiz, u o‘zining ilk mashqlaridanoq oddiygina izhor emas, poetik izhorga, obrazli ifodaga harakat qiladi. Zero, adabiyotshunos olim Bahodir Karim yozganidek, Eshqobil Shukur “…ayni damda “olovli muzlar”ni, o‘zaro murosa qilmaydigan so‘z birikmalardan foydalanadi. She’r tabiati ularni ko‘taradi. She’rni ma’nolar, sirlar, lahzalar bezaydi. Gohida idrok zo‘riqadi. Qayta o‘qishga, o‘ylash va tasavvurga ehtiyoj paydo bo‘ladi”[28].

[27] Шукуров Э. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 14.
[28] Каримов Б. Кўнглимни тошга ёрдим // Шарқ юлдузи. –Тошкент, 2022. № 9. –Б. 112.

Eshqobil Shukur she’rlarida uchraydigan obrazlar mohiyatini yanada teranroq anglash va tahlil qilish maqsadida quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. *Vatan va xalq obrazi.*
2. *Insonlar obrazi*
3. *Majoziy obrazlar.*
4. *Detal obrazlar.*

Shoir o‘z she’rlarida bolaligi o‘tgan “Boymoqli” qishlog‘i, qir-adirlari, xushmanzara bog‘lariga ham ko‘p bor murojaat qiladi. Qishlog‘i tasvirida Vatan obrazini yaratadi. Shoirning “Bobolar yeri”[29] mavzusidagi she’rida kindik qoni to‘kilgan zaminga muhabbati izhor etiladi. She’r 6 banddan tashkil topgan bo‘lib uch qismga bo‘lingan. 1-qismda *Afriqo, Ovrupo, Arshi a’lo* so‘zlari vositasida tarixiylik tamoyili bo‘y ko‘rsatadi. She’rning 2-qismida Vatan obrazi tabiat unsurlari bo‘lmish *bug‘doyzor, dala, tuproq* va *hayotning o‘lish-tug‘ilish qonuniyati* asosida badiiy bo‘yoqlarda tasvirlab beriladi. She’r qismlari orasida tadrijiylik ko‘zga tashlanadi. 1-qism qadimgi “Bobolar yeri” bilan boshlangan bo‘lsa, 2-qismda avlodlar ildizi, tug‘ilishi bilan davom etadi. 3-qismda esa lirik qahramon “qirq yilda” birikmasi orqali yoshiga ishora qiladi. Bu ayni davrga ishoradir. Bundan tashqari, Vatan obrazidagi tuyg‘ular (*sevgi, mehr, hasrat, hayrat, qayg‘u, muhabbat, haqiqat*) va shaxslar (*ona, ota, bola*) timsoliga ko‘chadi va she’rga poetik ruh bag‘ishlaydi.

Adabiyotning asosiy obrazi va mavzusi-insondir. Zero, adabiyotshunos olim Izzat Sulton ta’kidlab o‘tganidek: “Inson adabiyotning tasvir predmetidir. Inson tasviri yo‘q joyda badiiy adabiyot yo‘q. “Inson tasviri”- butun boshli odamning ichki dunyosi, uning kechinmalari tasviri demakdir”[30]. Inson obrazi Eshqobil Shukur ijodining muhim qismini tashkil etadi. Shoir she’rlari tahlili jarayonida tarixiy-adabiy qahramonlar bilan bir qatorda shoirning yurtdoshlari, qishloqdoshlari obrazini o‘zida aks ettirgan shaxslar obraziga ham guvoh bo‘lamiz. Shu sababdan insonlar obrazini ham ikki turga bo‘lish mumkin:

1. *Tarixiy-adabiy qahramonlar obrazi.*
2. *Zamondosh insonlar obrazi.*

Eshqobil Shukur buyuk shaxslar, tasavvuf namoyondalari haqida ko‘plab she’riy asarlar yaratgan. Bu asarlarda ajdodlarimizning bizga qoldirgan boy merosi, aql-zakovati va bobolarimizning qahramonliklari madh etilgan. Hazrat Alisher Navoiyga bag‘ishlangan bir qancha she’rlar yozgan. Jumladan, “Boyqaro. 1501”[31] va “To‘qqizinchi fevral”[32] she’rlari shular jumlasidandir. Shoirning “Qadimgi bitiktoshlarga yozuvlar”[33] turkumida “Oltin yorug” bitikdoshi qahramoni, ochlikdan o‘layotgan yo‘lbarsga rahm qilib, o‘z jonini qurbon qilgan afsonaviy Mag‘astvi va Mahmud Koshg‘ariy obrazlari badiiy bo‘yoqlarda tasvirlanadi. Shuningdek, shoirning “Nasoyim ul muhabbatga sayr”[34] turkumida Uvays Qaraniy, Boyazid Bistomiy, Zunnun Misriy kabi ulug‘ shayxlarga bag‘ishlangan she’rlari ham mavjud. Eshqobil

[29] Шукуров Э. Кўз юмиб кўрганларим. –Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 83.
[30] Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Тошкент: O‘qituvchi, 2005. – B. 54.
[31] Шукуров Э. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 27.
[32] Shu muallif. Ko‘rsatilgan asar. – Б. 28.
[33] Shu muallif. Ko‘rsatilgan asar. – Б. 134.
[34] Shu muallif. Ko‘rsatilgan asar. – Б. 206.

Shukur ijodida zamonaviy insonlar obrazi o‘ziga xos talqinda uchraydi. Shoir o‘z she’rlarida inson obrazini *singil, ota, ona* kabi qarindoshlar siymosida; *bola, yigit, momo, chol* kabi yosh doirasida; *kelin, kuyov, bobodehqon, cho‘pon* kabi ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda tasvirlab beradi va insonning turfa xarakter-xususiyatlarini ochishda xalqona iboralardan foydalanadi.

Eshqobil Shukurning “Hamal ayvoni” to‘plamida singlisiga bag‘ishlov shaklida yozilgan ikkita she’r mavjud. Ular “Yangi yil she’ri” va “Singilga bag‘ishlov” deb nomlangan. “Yangi yil she’ri”[35] da singil obrazi onasidan qolgan yodgorlik sifatida talqin etilgan. Ikkinchi “Singilga bag‘ishlov”[36] she’rida lirik qahramon singil obraziga nisbatan bir qancha tavsiflardan foydalanadi: “mushtipar egachim”, “tilovchim”, “yaxshi-yomon kunda so‘rovchim”, “duogo‘yim”, “mushtiparim”, “oy kabi olisim”, “xolisim” kabi.

Eshqobil Shukur she’rlarida eng ko‘p uchraydigan obrazlardan yana biri bola timsolidir. Shoirning qator she’rlarida bolaning nafaqat yoshi balkim ijtimoiy holati ham yoritiladi. She’rlaridagi **“Yetim bola”, “Gung bola”, “Jinni bola”, “Kar bola”** obrazlarida yosh qalbning iztirob-u alamlari yoritib beriladi. Shoir ijodida kelin obrazi alohida ahamiyatga ega. U goh hayot davomchisi, goh sevimli yor, gohida oilaning rizq-u nasibasi sifatida she’rga ko‘chadi. Umuman olganda, kelin obraziga xalqimizda naslni, ro‘zg‘or saodatini yuzaga chiqaruvchi “shaxs” sifatida qaraladi. Eshqobil Shukurning “Ro‘zg‘or butligi”[37] she’rida ham kelin obrazi badiiy bo‘yoqlarda tasvirlanadi.

Shoir she’riyatida majoziy obrazlar asosan hayvonlar va qushlar vositasida ifodalanadi. She’rlarida jonivorlar hayotidan olingan, o‘quvchida lirik kayfiyat hosil qiluvchi topilmalar ko‘p. Masalan, ijodkorning “Ko‘z yumib ko‘rganlarim” kitobidan o‘rin olgan 26 qismlik “Ko‘z yumib ko‘rganlarim”[38] she’rining 10-qismida har chorshanbaga o‘tar kechi Payg‘ambar oroliga boruvchi ***yo‘lbars,*** 11-qismda Qirqqizning bir kechada oqargan sochlaridan yaralgan ***oq ilon***, 17-qismda ochiq derazaning raxiga qo‘nib duo qilayotgan ***qush***, 19-qismda bir ***it*** poyida cho‘kka tushgan ***nochor tuya,*** 21-qismda Odam Ato o‘g‘illariga o‘likni ko‘mishni o‘rgatgan ***qarg‘a*** hamda 25- qismida keltirilgan ***bo‘ri, kiyik, qo‘ng‘iz*** majoziy obrazlari turli badiiy bo‘yoqlarda ifodalangan. Masalan 25-qismda keltirilgan

*...Ikki **bo‘ri** ko‘rdim,*
yer talashardi.
*Ikki **kiyik** ko‘rdim,*
yor talashardi.
*Ikki **qo‘ng‘iz** ko‘rdim,*
go‘ng talashardi.
*Ikki **odam** ko‘rdim*
go‘r talashardi… misralarida qo‘llangan majoziy hayvon obrazlari “go‘r talashgan ikki odam”ning nafsoniy istak-xohishlariga ishora qilinganligi

[35] Шукуров Э. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 32.
[36] Shu muallif. Ko‘rsatilgan asar. – Б. 285.
[37] Shu muallif. Ko‘rsatilgan asar. – Б. 61.
[38] Шукуров Э. Кўз юмиб кўрганларим. –Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 24.

oydinlashadi. Aytish mumkinki, hayvonlar vositasida insonga xos hislatlar ochib berilishi majoziy obrazning asosiy xususiyatlaridir.

Eshqobil Shukur she'riyatining obrazlar tizimiga nazar solar ekanmiz, xalqning urf-odatlarini o'zida mujassam etgan bir qator detal obrazlarga ham duch kelamiz. Masalan, *chanqovuz, chimildiq, beshik (tol beshik, qo'sh beshik, belanchak), kuyovmunchoq, keshta, so'zana, sochala* obrazlari xalqimizning o'zligi, urf-odatlari, unutilmas orzu-umidlari talqini sifatida namoyon bo'ladi.

Bobning ikkinchi paragrafida ***"Ijodkorning ramz qo'llash mahorati"*** masalasi tadqiq qilingan. Haqiqiy she'rni ramzlarsiz tasavvur etish qiyin. Ijodkor ifoda etmoqchi bo'lgan fikrni ramzlar asosida ko'chma ma'nodagi so'zlar yordamida ochib beradi. O'z o'rnida topib qo'llangan ramzlar asarning faqat bezagi hisoblanmaydi. Ular orqali so'zlarning ortiqcha "isrof" idan saqlanadi, "ramz obrazning mohiyatini oydinlashtiradi, shaklan yorqinlashtiradi, mazmunan chuqurlashtiradi, hissiy ta'sirchanligini kuchaytiradi[39]. Eshqobil Shukur ijodida qo'llangan ramzlarni shartli ravishda ikkiga tasnif qilish mumkin:

1. *An'anaviy ramzlar*
2. *Individual ramzlar*

Individual ramzlar deyilganda oldin adabiyotda mavjud bo'lmagan va eng asosiysi ijodkor mahorati, o'ziga xos badiiy tafakkurini ko'rsatib berish uchun xizmat qiluvchi, ma'lum ijodkor tomonidan "kashf etilgan" ramz tushuniladi.

Masalan, shoirning 4 banddan iborat, to'rtlik shaklida yozilgan "Ko'nglimni.." she'ri tahlilini ko'rib o'tamiz.

Ko'nglimni toshga yordim,
Toshlar sindi-ya chil-chil.
Suv ichgali ko'zimga
Qushlar qo'ndiya bir-bir.[40]

To'rtlikdagi **ko'ngil**-shoir iztirob-u dardlari, **tosh**-bu og'irlik ma'nosiga ishora, ya'ni og'ir tabiatli inson ramzi. Ko'rinadiki, har ikkisi ham an'anaviy ramz. Lekin oxirgi misrada lirik qahramonning "ko'zlariga suv ichgali qo'ngan" **qushlar**-individual ramz bo'lib, bu yerda o'zgalar holatidan qat'i nazar o'z manfaatlarini ustun ko'ruvchi insonlar ramzidir. Shoirning yana bir she'ri "Tinchlik xususida nutq" deb nomlanadi. Unda shoir tog' ramzini mahorat bilan qo'llaydi. Bilamizki, tog'-salobat, sabr-matonat, ulug'vorlik ma'nolarida azaldan mavjud. Demak, tog' ramzi mazkur she'rda pir-u ustozlar, suyanchiq insonlar ma'nosida badiiy bo'yoqlarda tasvirlanadi. Shoir she'rlarini tahlil qilar ekanmiz, o'tov ramziga ham bir necha bora duch keldik, u har gal mehrgo'sha inson ramzida qo'llangan. Ramziy obrazlarning qamrovi keng, Eshqobil Shukur ijodida keng qo'llangan ramzlardan biri qush ramzidir. Mazkur ramziy obrazning adabiyotga kirib kelishi xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Misol uchun, qaldirg'och ramziy obraz sifatida mumtoz adabiyotdan tortib, to bugungi kun zamonaviy adabiyotda ham keng qo'llanilib kelinmoqda. Eshqobil Shukurning "Norboy aka marsiyasi"[41] she'rida qaldirg'och xokisorlik ramzida qo'llangan bo'lib,

[39] Жуматова Н. Ҳозирги ўзбек шеъриятида ранг билан боғлиқ рамзий образлар. Филол. фан. номз…дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 10

[40] Шукуров Э. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 9.

[41] Shu muallif. Ko'rsatilgan asar. – Б. 24.

umr bo‘yi azob chekkan insonga ishora qilinadi. “Jimgina ishona boshlaysiz menga”[42] misrasi bilan boshlanuvchi she’rida esa Qaldirg‘och ramzi umid timsoli sifatida gavdalanadi. Eshqobil Shukur ijodida ko‘p uchraydigan ramzlardan yana biri guldir. Shoirning ko‘plab she’rlarida namozshomgul ramzi uchrashi diqqatimizni tortdi. Masalan, “O, uyatchan nomozshomgullar”[43] misralari bilan boshlanuvchi 5 bandlik she’rning har bandining birinchi qatori “O, uyatchan nomozshomgullar” undalmasi bilan boshlangan. 1-bandda gulga “she’rning dilbar singilchalari”, 3-bandda “Bibixonim qizi”, 4-bandda “go‘zallikning pok qizchalari” kabi o‘xshatishlar qilinadi. Shoirning “O, meni yig‘latma…”[44] she’rida ham nomozshomgul qayg‘uli inson ramzi sifatida badiiy bo‘yoqlarda tasvirlangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Folklorizmlar va badiiy ifoda uyg‘unligi”** deb nomlangan bo‘lib, dastlabki paragrafi ***“Folklorizmlar va lirik talqin sintezi”*** tadqiqiga bag‘ishlangan. Folklor va yozma adabiyot munosabati benihoya keng bo‘lib, milliy adabiyotning shakllanish va rivojlanishida xalq og‘zaki ijodining roli katta. Adabiyotshunoslikdan ma’lumki, yozma adabiyotga maqol, matal, iboralarning ko‘chirilishi - **oddiy folklorizmlar** hisoblanadi. Oddiy folklorizmlar she’riyat poetikasida asosiy o‘rin egallaydi. Oddiy folklorizmlarni shartli ravishda ikki turga ajratish o‘rinlidir. “Ya’ni xalq maqol va matal, obrazli xalqona badiiy ifodalar (idioma va boshqalar)ning aynan o‘zidek ishlatilishi asl oddiy folklorizmlar bo‘lsa, ularning ijodkor tomonidan qaytadan o‘zgartirishlarga uchrab, yangilanishi - qayta ishlangan oddiy folklorizmlarni tashkil etadi”[45]. Eshqobil Shukur ijodida oddiy folklorizmning har ikki turi faol uchraydi. Masalan, “Ruhning parvozi” she’rida “oy borib, omon qayt” frazealogik birligi, “Qarining o‘limi haqidagi xabardan so‘ng” she’ridagi qariya tilidan aytilgan *“imonini bersin”* o‘rta yosh inson tilidan aytilgan *“yoshin yashab, oshin oshadi”* birikmalari, “Ot aylanib…” misralari bilan boshlanuvchi she’rida *“Ot aylanib qozig‘ini topganda”* maqolining aynan qo‘llanilishi **oddiy folklorizmlar**ning betakror na’munasi sifatida shoirning folklorizmlarni qo‘llash mahoratini ko‘rsatgan. Eshqobil Shukur ijodida **qayta ishlangan oddiy folklorizmlar** ham salmoqli o‘rin egallagan bo‘lib, shoir she’rlarining g‘oyaviy jihatini va badiiyatini, poetik maqsadini ochib berish uchun qo‘llangan. Jumladan, Xalqimizda “Tushingni suvga ayt” degan naql bor. Eshqobil Shukur bu naqlni “Ko‘nglimni…”[46] misrasi bilan boshlanuvchi she’rida “Tushimni suvga aytdim” shaklida qo‘llaydi:

…Tushimni suvga aytdim.
Suvlar yondi-ya lov-lov.
Cho‘g‘ tergali tilimga
Qishlar qo‘ndiya birrov…

O‘z o‘rnini bilish ma’nosida qo‘llanadigan “hadini bilmoq” iborasi ham shakliy o‘zgarishga uchragan holda “Xudbinlik”[47] she’rida 2-shaxsga qaratilgan buyruq shaklida *“haddingni bil”* tarzida ishlatilgan. Folklorizmlarning biz yuqorida ko‘rib

[42] Шукуров Э. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б. 13.
[43] Shu muallif. Ko‘rsatilgan asar. – Б. 17.
[44] Shu muallif. Ko‘rsatilgan asar. – Б. 111.
[45] Mamayusupova S. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida folklorizmning o‘rni. Filol. fan. b. fals. dok...(PhD) diss. avtoref. –Jizzax, 2024. – B. 15.
[46] Шукуров Э. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 9.
[47] Shu muallif. Ko‘rsatilgan asar. – Б. 25.

o‘tgan oddiy turi bilan bir qatorda murakkab turi ham mavjud bo‘lib, B.Sarimsoqov uni tabiati va vazifasiga qarab: a) analitik folklorizm; b) sintezlashgan folklorizm; v) stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar tarzida uch guruhga bo‘ladi[48]. Mazkur tasnifga asoslangan holda Eshqobil Shukurning xalqona ruhdagi she’rlarini quyidagicha tasnif qilish mumkin:

analitik folklorizm asosidagi she’rlar;
sintezlashgan she’rlar;
stilizatsiya xarakteridagi she’rlar.

Analitik folklorizm asosidagi she’rlar. Folklorizmning bu turida ijodkor o‘z asarida xalq og‘zaki ijodi na’munasi hisoblangan biron-bir parchani qo‘llaydi. Masalan, Eshqobil Shukur “Buzoqning o‘limidan so‘ng”[49] she’rida sog‘im qo‘shig‘idan aynan namuna keltirib, she’r manzarasini yorqin ifodalashga erishadi:

Quvshab yegin o‘tingni,
Iyib bergin sutingni.
Sening bolang o‘libdi,
Xurmo bolang bo‘libdi,
“Ho‘sh-ho‘sh, enam-ov, ho‘o‘sh”.

Shu parchadan so‘ng shoir “Buzog‘i o‘lgan sigirni xotinlar shunday ovutishgan” deb izoh beradi. Darhaqiqat, manzara juda qayg‘uli: ayol befarzand, boz ustiga tuqqan sigiri buzog‘idan ayrildi. Shoir ana shu manzarani jonlantirish va ta’sirchan ifodalash uchun **“ho‘sh-ho‘sh”** qo‘shig‘idan parcha keltirib, analitik folklorizmni hosil qilgan. Bunday holni “Sumbula” nomli xalq qo‘shig‘ining stilizatsiyasi haqida ham ko‘rishimiz mumkin.

Sintezlashgan she’rlar. Sintezlashgan folklorizmda xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan ma’lum bir syujet ijodkor asariga singdirib yuboriladi. Sintez so‘zining qo‘shiluv, birikuv ma’nolarini bildirishi ham buning isbotidir. Masalan, shoirning “Go‘ro‘g‘li”[50] she’rida “Go‘ro‘g‘li” dostoni syujeti voqeligi ya’ni Go‘ro‘g‘lining qabrda tug‘ilishi tasviri orqali shoirlarga bo‘lgan qarash ochib berilgan. “Qiz qo‘shig‘i”[51] she’rida esa xalqimizning sevimli “Yoriltosh” ertagiga ishora qilinib, yoriltoshning qizning fig‘onidan yorilish syujeti she’rga ko‘chirilgan:

Yoriltoshlar yorildi,
Yorilmading sen.
Burum sochlar sorildi,
Burilmading sen…

Stilizatsiya xarakteridagi she’rlar. Stilizatsiyaviy folklorizmlarda ayni takror emas, balki xalqona uslub, xalqona pafos ustuvorlik qiladi. Bu kabi usulda yaratilgan asarlar xalqona shaklni yodga solishi bilan xarakterlanadi. Stilizatsion folklorizmlar ijodkor mahoratini, uning xalq ijodi bilimdoni ekanligini belgilovchi muhim vosita desak yanglishmagan bo‘lamiz. Ijodkor xalq og‘zaki ijodiga mansub janr, motiv, ohang yoki obrazni o‘z usulida, yangicha ko‘rinishda qayta yaratar ekan u nafaqat yozma

[48] Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологияси масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. – 4-сон. – Б. 42-44.
[49] Шукуров Э. Яшил қушлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – Б. 84.
[50] Шукуров Э. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 114.
[51] Shu muallif. Ko‘rsatilgan asar. – Б. 73.

adabiyot rivojiga balki, ogʻzaki adabiyot umrboqiyligiga ham oʻz hissasini qoʻshgan hisoblanadi. Demak, xalq ogʻzaki ijodiga mansub asar syujeti, mazmuni, shakli, ohangi aynan saqlanib, yangicha usulda, shaklda yaratilgan asarlar stilizatsion folklorizmlarni vujudga keltiradi.

L.Sharipova stilizatsion folklorizmlar folklor janrlari (doston, ertak, afsona, rivoyat, qoʻshik, yigʻi, yoʻqlov, alla kabilar)ning asosiy motivlari va badiiy shaklini ifoda uslubini hamda ularga aloqador yuksak gʻoyaviy motivlarni, an'anaviy epik obrazlarni, koʻtarinki ritmni ijodiy oʻzlashtirish natijasida yuzaga keladi, deya ta'kidlaydi va stilizatsion folklorizmlarni shu asosda toʻrt turga boʻladi: 1. Janr stilizatsiyasi. 2. Motiv stilizatsiyasi. 3. Obraz stilizatsiyasi. 4. Ritm stilizatsiyasi[52].

Folklor janrlarini oʻzlashtirib, ularni yozma adabiyotga olib kirish **janr stilizatsiyasi** hisoblanadi. Yozma adabiyotimizda dastlab doston, maqol, topishmoq, yoʻqlov, yigʻi, keyinchalik yor-yor, alla kabi folklor janrlari stilizatsiya qilingan. XX asrning 70-80-yillari oʻzbek she'riyatida, xususan, Eshqobil Shukur ijodida ham ana shu an'ananing davomini koʻramiz. Shoirning "Mengim momoning yoʻqlovi"[53] nomli she'rida motam marosimiga aloqador yigʻi va yoʻqlov xarakteri namoyon boʻladi. Surgunga ketgan yaqinlari izidan Sibirga borgan momo oʻsha yurtlarda joni-omonatini topshirayotib, oʻz-oʻziga yoʻqlov aytadi. Voqelik sitilizatsiyasi yuzaga kelgan. Dissertatsiyada motiv stilizatsiyasi, obraz stilizatsiyasi, ritm stilizatsiyasiga Eshqobil Shukur she'rlari misolida batafsil toʻxtalingan.

Umuman olganda, Eshqobil Shukur folklorizmning turli shakllaridan unumli foydalangan holda oʻz she'rlarining ta'sir doirasini, teran mazmun, samimiylik, jozibadorlik, poetik ohangini oshirgan. Shu bilan birga xalq urf-odatlari, unutilayotgan an'analarni ham yozma adabiyotga mohirlik bilan koʻchiradi.

Bobning ikkinchi ***"Badiiy tasvir vositalari – soʻz poetik ifodasi omili"*** paragrafida Eshqobil Shukur ijodida qoʻllangan *lafziy, ma'naviy, mushtarak* san'at turlari tahlil etilgan. Adabiyotshunos Toʻxta Boboyev ta'rificha, **lafziy san'atlar** she'riy nutqdagi soʻzning tovushi bilan bogʻliq boʻlib, koʻproq shakl hodisasi sifatida koʻrinadi[54]. Demak, badiiy san'atning mazkur turida shakl ustuvorlik qiladi. Shoir ijodida lafziy san'atning *nido, tasdir, tasbe, tardi aks, ta'did, tarsi', takrir, mukarrar, alliteratsiya, anafora, epifora* kabi turlari uchraydi.

Adabiyotshunoslikdan ma'lumki, she'riy san'atlarning aynan lafziy turlari ijodkor yetkazmoqni maqsad qilgan gʻoya va fikrni yuksak badiiy shaklda oʻquvchi ongiga singdiradi. Shundan kelib chiqib, ta'kidlash joizki, shoir poetik mahoratining oʻziga xosligini ifodalashda she'rda qoʻllangan lafziy san'atlar muhim ahamiyatga ega. Ulardan biri "**tarsi"** badiiy san'atidir. Eshqobil Shukurning masnaviy shaklda yozilgan "Xalq ohangida"[55] she'rining besh baytida ushbu san'atning goʻzal na'munasini koʻrishimiz mumkin:

[52] Шарипова Л. XX асрнинг70-80-йиллари ўзбек шеъриятида фолклоризмлар. Филол. фан. д-ри...дисс. автореф. –Тошкент, 2008. – Б.88.
[53] Шукуров Э. Яшил қушлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – Б. 37.
[54] Бобоев Т. Шеър илми таълими. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 237.
[55] Шукуров Э. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 92.

1-bayt:

1-misra	Oybulutning	orasidan	oyday	kelinlar	kelar
2-misra	Kunbulutning	orasidan	kunday	kelinlar	kelar

Ko‘rinadiki, birinchi misradagi so‘zlar ikkinchi misradagi har bir so‘z bilan parallel holda ohangdoshlik hosil qilib, tarsi’ni yuzaga keltirgan. Keyingi badiiy san’at-**tardi aks.** “Tardi aks (ar. - teskari qilib takrorlash) - bayt tarkibidagi ikki so‘z yoki birikmani avval muayyan bir tartibda keltirib, so‘ng ularning o'rnini almashtirib takrorlash san’ati. Mumtoz poetikaga doir manbalarda “aks”, “tabdil” nomlari bilan ham keladi”[56]. Bu san’atning ikki turi mavjud:

1. **Komil aks**-bunda so‘zlarning o‘zaro o‘rin almashinishi baytdagi birinchi va ikkinchi misra orasida kuzatiladi. Masalan, shoirning “Ruhim” she’rida:

1-misra	Men	**qushlarning**	*tushlarida*	ko‘rinay
2-misra	Men	*tushlarning*	**qushlarida**	ko‘rinay

2. **Maxraj aks**-bunda misraning o‘zidagi ikki so‘z o‘zaro almashinib qo‘llanadi. Masalan, “Sahro” she’rida tardi aksning bu turini uchratishimiz mumkin:

Dil	qayda,	**gul**	*qayda,*	*qayda*	**guliston?**

Eshqobil Shukur she’riyatida ko‘p uchraydigan lafziy san’atlardan biri **alliteratsiyadir**. “Bunda shoir o‘z fikrini ifodalash uchun yangroqdosh, ya’ni bir xil yangroq tovushga ega bo‘lgan so‘zlardan foydalanadi”[57].

Ijodkorning badiiy tafakkurini ifodalashda bu san’atning o‘rni beqiyosdir. Alliteratsiya jo‘shqinlik, ko‘tarinkilikni ifodalaydi. Eshqobil Shukur she’riyatining boshqa ijodkorlardan farqli tomoni ham jo‘shqinlik va xalqona pafosdadir. “Chimildiq”[58] she’rida alliteratsiyaning go‘zal na’munasini uchratamiz:

***S**ochala **s**ochingiz, **s**ochala*
***S**epini ochingiz, chechalar…*

Ko‘rinadi, yuqoridagi misralar ohangdoshligi **“s”** harfining takroridan hosil qilingan va she’rga ko‘tarinki ruh bag‘ishlagan. Ta’kidlash joizki, boshqa ijodkorlardan farqli ravishda shoir she’riyatida anaforaning **strofik** turini ko‘proq uchratamiz. Bu turda misralar to‘liqligicha takror holda qo‘llanadi. Ma’lumki, xalq qo‘shiqlarida strofik anafora keng qo‘llaniladi. Eshqobil Shukur she’rlarida aynan shu turning yetarlicha uchrashi ham xalqona ruh ustuvorligidandir. Eshqobil Shukur she’riyatida ma’naviy san’atlar ham salmoqli o‘rin egallaydi. Shoir she’riyatida *tashbeh, tazod, irsol-u masal, talmeh, laff va nashr, tashxis, intoq, tajohuli orif* kabi turlarini uchratamiz. Tashbehning individual hodisa ekanligini hisobga olsak, uning orginalligi ijodkor mahorati bilan o‘lchanadi.

Masalan, “Sholi qo‘riqchisi” she’rida chayla tuyaning o‘rkachiga o‘xshatiladi, bu, albatta, o‘ziga xos topilma. **“Irsol-u masal** (ar. maqol keltirish) she’riy baytda fikr qaymog‘ini tashuvchi, ayni paytda, judayam siqiq shakldagi maqollarni qo‘llash san’atidir”.[59]

[56] Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Тошкент: TA’LIM-MEDIA, 2019. – B. 159.
[57] Shu muallif. Ko‘rsatilgan asar. – B. 161.
[58] Шукуров Э. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 62.
[59] Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – B. 170.

Eshqobil Shukurning “Ruhning parvozi” she’rida “Oy borib, omon qayt” frazealogik birligi orqali irsol-u masal san’atini hosil qilgan. “Yaratganga shukur…”[60] misralari bilan boshlanuvchi she’rida Masih, Momo Havo, Odam Ato timsollarini keltirish orqali talmeh san’ati yuzaga kelgan. **Laff va nashr** (ar, - yig‘ish va yoyish) - bunda shoir biror narsa yoxud hodisani oldin sanaydi, so'ng shu tartibda ularga tegishli o‘xshatishlarni tizib chiqadi[61]. Shoirning “Suv ustida, suvlar ustida…”[62] she’rining 3-bandida laff va nashr san’ati qo‘llangan:

…tosh ustida, toshlar ustida
Ko‘nglim erir oy kabi ma’yus.
Ishq faslida, hijron faslida
Yig‘la, **Bahor**, mening ismim – **Kuz..**

Ko‘rinadiki, yuqoridagi bandning uchinchi misrasidagi **“ishq fasli”** to‘rtinchi misradagi Bahorga, **“hijron fasli”** birikmasi esa Kuzga ishora qilinmoqda.

Dissertatsiyada bu kabi ko‘plab badiiy san’at turlari misollar asosida batafsil tahlil qilingan.

XULOSA

Eshqobil Shukur she’riyatida so‘zning badiiy vazifasi tadqiqiga bag‘ishlangan ushbu tadqiqot natijalaridan quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Eshqobil Shukur o‘ziga xos ohang va uslub bilan adabiyotimizga kirib keldi. Uning bitganlari xalqona dard, xalqchil hamda o‘zgacha yangi topilmalar hisoblangan obrazlar bilan ajralib turadi. Eshqobil Shukur she’riyatida xalq og‘zaki ijodiga xos sodda, lo‘nda ifoda usuli folklor ohanglari bilan uyg‘unlashib ketadi. Shoir she’riyatida qadimiy unutilgan musiqiy ohanglar yangidan jilolanib, asarlariga yuksak ma’no, yangicha ruh bag‘ishlaydi. Shoir lirikasida xalq og‘zaki ijodi an’analari ufurib turadi.
2. Eshqobil Shukur she’riy asarlarida masnaviy, musabba, muxammas, musaddas, mustasne’, marsiya, doston, qo‘shiq, bag‘ishlov, sonet kabi turli shakllarning go‘zal namunalari va janrlar xilma-xilligidan foydalangan. Masalan, “Hamal ayvoni” to‘plamida 2 ta marsiya bo‘lib, bular marsiyaning yig‘i-yo‘qlov turida yozilgan “Mengim momoning yo‘qlovi” va “Norboy aka marsiyasi”. Shoir ijodida qo‘shiqning marosim turiga kiruvchi “Alla” va “Yor-yor” turlarini ham uchratamiz. Sonet janrida yozilgan “Tilsiz shovullaydi uzun sochlaring…” misralari bilan boshlanuvchi she’rlari shular jumlasidandir.
3. Vatan va millat mavzusidagi she’rlar zamirida teran mohiyatni joylay bilishi, milliy ruhni mujassam etish salohiyati bilan alohida ajralib turadi. Shoir ijodida bolalik xotiralari, inson va tabiat, tinchlik, el-yurtga muhabbat, xalq hayoti va qadriyatlar bilan bog‘liq so‘nmas adabiy mavzularning yangicha ifodalarini kuzatamiz. Shoir lirikasida *Vatan va millat, erk va ozodlik, ishqiy* hamda *diniy-tasavvufiy* mavzudagi she’rlar salmoqli o‘rin egallaydi. Masalan, “Sochlari sumbul-sumbul…” to‘plamidan o‘rin olgan 66 ta she’rning 10 ga yaqinida Vatan va millat,

[60] Шукуров Э. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б. 165.
[61] Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Тошкент: TA’LIM-MEDIA, 2019. – B. 167.
[62] Шукуров Э. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 18.

eldoshlari taqdiridan qayg‘urgan lirik qahramon ruhiy kechinmalari badiiy bo‘yoqlarda ifodalangan.

4. Shoirning tarixiy, diniy-tasavvufiy mavzudagi she’rlarida tarixiylik tamoyillari va me’yorlariga amal qilib, qahramonlar faoliyati, ichki dunyosi ochib berilgan. She’rlarida Shayx Uvays Qaraniy, Boyazid Bistomiy, Zunnun Misriy kabi ko‘plab obrazlar buning dalilidir. Jumladan, Shayx Uvays Qaraniyga bag‘ishlangan “O‘ttiz ikki tish dostoni”, “Nasoyimul muhabbatga sayr” turkumidagi “Uch ilm hikmati”, “Surat va siyrat”, “Yashil o‘lim”, “Uch ilm hikmati” kabi she’riy asarlar shular jumlasidandir.

5. Eshqobil Shukur she’riyatidagi obrazlar tizimini *Vatan va xalq, insonlar, majoziy* va *detal* obrazlar kabi tasnif asosida tadqiq qilindi. Shoir ijodidagi Vatan obrazi shunchaki ulug‘lanmaydi. Uning shonli o‘tmishi, buguni, kelajagi badiiy bo‘yoqlarda tasvirlanadi. “Mengim momoning yo‘qlovi”, “Ulg‘ayish”, “Boymoqlida bahor”, “Bobolar yeri” she’rlarida shoir Vatan obrazini xalq dardi, tarixi va o‘z tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i bilan uzviylikda ifodalaydi.

6. Shoir she’rlarida tarixiy-adabiy obrazlar bilan bir qatorda shoirning yurtdoshlari, qishloqdoshlari obrazi ham she’rlarida yoritilganini ta’kidlash kerak. Shu sababdan ijodkor she’rlaridagi insonlar obrazini ham ikkiga tasnif qilib, *tarixiy-adabiy qahramonlar obrazi va zamondosh insonlar obrazi* tarzida tahlil qilindi. Jumladan, “Boyqaro. 1501” va “To‘qqizinchi fevral” she’rlarida Navoiy, “Qadimgi bitiktoshlarga yozuvlar” turkumida afsonaviy Mag‘astvi va Mahmud Koshg‘ariy, “Usmon Nosir” she’rida Usmon Nosir kabi tarixiy-adabiy obrazlar badiiy bo‘yoqlarda tasvirlanadi.

7. Eshqobil Shukur ijodida zamonaviy insonlar obrazi o‘ziga xos talqinda uchraydi. Shoir o‘z she’rlarida inson obrazini *singil, ota, ona, bola*, kabi qarindoshlar siymosida, *yigit, momo, chol* kabi yosh doirasida; *kelin, kuyov, bobodehqon, cho‘pon* kabi ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda tasvirlab, insonning turfa xarakter-xususiyatlarini ochishda xalqona iboralardan mahorat bilan foydalangan. She’rlarida bola obrazi asosiy ahamiyatga ega bo‘lib, “Yetim bola”, “Gung bola”, “Jinni bola”, “Kar bola” obrazlarida yosh qalbning iztirob-u alamlari badiiy tasviriy vositalar asosida yoritib berilgan.

8. Hayotiy parchalarni tipiklashtirish, asar xarakterini ochib berish, asarning emotsional ta’sir kuchini oshirishda detal obrazlar muhim o‘rin tutadi. Eshqobil Shukur ijodida qo‘llangan detal obrazlar o‘zining badiiy vazifasi bilan birga milliylik xususiyatiga ham ega. Masalan, *chimildiq, beshik, kuyovmunchoq, keshta, so‘zana* obrazlari xalqimizning o‘zligi, unutilmas urf-odatlari, orzu-umidlari talqini sifatida namoyon bo‘ladi.

9. Shoir ijodida ramzlar ham alohida ahamiyatga ega. Ular *a’nanaviy ramzlar* va *individual ramzlar* sifatida o‘rganildi. Ramzlarning an’anaviy turi keng qo‘llanganligini ta’kidlash kerak. Bu ramz turlaridan biri qush ramzidir. “Norboy aka marsiyasi” she’rida qaldirg‘och xokisorlik ramzida, “Men va musicha” she’ridagi musicha esa beg‘ubor inson ramzida tasvirlanadi. Ijodkorning tabiat hodisalari bilan bog‘liq qo‘llangan ramzlari salmoqli bo‘lib, “Hamal ayvoni” to‘plamidan o‘rin olgan “Qadimgi daftar yohud unutilgan ohanglar ohi” turkumining “Fasllar haqida ibtidoiy bitik” qismida fasllar ramz sifatida badiiy bo‘yoqlarda ifodalanadi.

10. She’riy asarlarning estetik qimmatini, ta’sirchanligini, emotsional ta’sirini oshiruvchi vositalardan biri badiiy san’atdir. Eshqobil Shukur ijodida badiiy san’atlarning lafziy, ma’naviy va mushtarak kabi guruhiga kiruvchi badiiy san’atlardan keng foyadalanilgan. Jumladan, shoirning “Ruhim” she’rida tardi aks san’atining nisbatan murakkab bo‘lgan *komil aks* va “Sahro” she’rida *maxraj aks* kabi turlari mahorat bilan qo‘llanilganini ta’kidlash kerak. Lafziy san’at turlari ichida takrorga asoslangan *anafora, epifora, takrir, mukarrar* kabi, qaytariqlarga asoslangan *qaytariq, tasbe, tasdir* kabi she’riy san’atlar uchraydi.

11. She’r tarkibida qo‘llangan paremiologik birliklar badiiy san’atlarning *irsol-u masal* turini hosil qilishda alohida ahamiyatga ega. Eshqobil Shukurning “Ruhning parvozi”, “Qarining o‘limi haqidagi xabardan so‘ng” kabi ko‘plab she’rlari tarkibida xalqimizga xos bo‘lgan maqol, matal va hikmatli so‘zlar qo‘llanilib, irsol-u masal badiiy san’atini hosil qilgan.

12. Eshqobil Shukur milliy she’riyatimiz tilini ancha boyitib, xalq tiliga yaqinlashtirdi. Xalqchil she’riy namunalar yaratdi. Yozma adabiyotimizda dastlab doston, maqol, topishmoq, yo‘qlov, yig‘i, keyinchalik yor-yor, alla kabi folklor janrlari stilizatsiya qilingan. Eshqobil Shukur ijodida ham ana shu an’ananing davomini ko‘rishimiz mumkin. Shoirning “Mengim momoning yo‘qlovi” she’rida motam marosimiga aloqador yig‘i va yo‘qlov xarakteri namoyon bo‘ladi.

13. Murakkab folklorizmlar tasnifiga asoslangan holda Eshqobil Shukur she’rlaridagi folklor an’analari *analitik folklorizm asosidagi she’rlar, sintezlashgan she’rlar, stilizatsiya xarakteridagi she’rlar* tarzida tasnif asosida o‘rganildi. Xalq og‘zaki ijodida *savol-javob, suhbat, aytishuv* shaklida yozilgan she’rlarni ko‘p uchratamiz. Bu kabi she’rlar iste’dodli shoir Eshqobil Shukurning “Qodir baxshi yodi”, “Yangi yil kechasi”, “Uchrashuv” she’rlarida namoyon bo‘lishini ta’kidlash kerak.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 AT ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

ERGASHOVA SADOQAT ESHMAMAT KIZI

THE ARTISTIC FUNCTION OF THE WORD IN THE POETRY OF ESHQABIL SHUKUR

10.00.02- Uzbek literature (20th Century Uzbek Literature and Contemporary Literary Process)

DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHILOLOGICAL SCIENCES

Tashkent – 2025

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered with the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2022.2.PhD/Fil2475.

The doctoral thesis was carried out at Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

The dissertation abstract is available in three languages (Uzbek, English, Russian (abstract)) on the website of the Scientific Council (www.tsuull.uz) and the "Ziyonet" Information-Educational Portal (www.ziyonet.uz).

Scientific adviser:	**Pardayev Quldosh Uzakovich** Doctor of Philological sciences (DSc), professor
Official opponents:	**Yakubov Islamjon Akhmedjanovich** Doctor of Philological sciences, professor
	Togayeva Gulandom Jummayevna Candidate of Philological sciences, docent
Leading organization:	**Tashkent State Pedagogical University named after Nizami**

The defense of dissertation will take place on 16 april 2025 at 10:00 hours at a meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 on the award of scientific degrees at Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. (Address: 100100, Tashkent city, Yakkasaroy district, Yusuf Xos Hojib street, 103. Phone: (99871) 281-42-44; Fax: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

The dissertation is available at the Information Resource Center of the Tashkent State university of Uzbek language and literature named after Alisher Navoi (registered under number # 338). Address: 100100, Tashkent, Yakkasaroy district, Yusuf Xos Hojib, 103. Phone: (99871) 281-42-44; Fax: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Abstract of dissertation is sent out on " 5 " 04 2025.

(Protocol registered of # 01 on " 5 " 04 2025)

H.A. Dadaboyev
Chairman of the Scientific council awarding scientific degrees,
Doctor of philological sciences, professor

S. Kh. Muhamedova
Scientific secretary of the scientific council awarding scientific degrees,
Doctor of philological sciences, professor

N.A. Jabbarov
Chairman of the scientific seminar under the scientific council that grants scientific,
Doctor of philological sciences, professor

INTRODUCTION (PhD dissertation abstract)

The relevance and importance of the dissertation topic. In the development of world literature and literary-aesthetic thinking, such studies as the influence of form and content on the aesthetic value of the word, the development of poetic thinking, and the artist's skill are of great importance. It is more relevant than ever to continue and improve scientific work in this area at the level of modern requirements for literary studies. It is known that no field has the power and ability of literature to renew human thinking, to introduce a certain idea into his consciousness. This has a serious impact on the development of new human thinking in the 21st century, its rapid growth and renewal.

The artistic function of the word in world literature is a new analysis of the example of images and symbols and a deep understanding of its historical evolution. The study of the genre characteristics and thematic scope of creative poetry is also an important factor in determining the specific nature of the poetry of a particular era. The study of the artistic function of literature, a deep understanding of the literary environment, socio-spiritual life problems, and the determination of the laws inherent in the poetic thinking of man are of great importance. The task of a true artist is to promote hopeful ideas that ensure the future of humanity, and to create exemplary images that serve to express qualities such as goodness and kindness in their worldview.

The genre-formal research taking place in Uzbek poetry during the period of independence is not just an example of a creative and poetic experiment. The ongoing genre-formal research is also bearing good results, as it has become the desire of the poets, the spiritual and intellectual need. Indeed, in the work of poets, the discovery of humanity in people becomes a priority principle. In the new Uzbek poetry, the work of poets who expanded the scope of our artistic thinking with their sincere language, playful and sad, tense and calm melodies, and in the current Uzbek poetry, the work of poets who changed our worldview with their style, thinking, and views is widely manifested that has literary and aesthetic significance. “A hundred years ago, the great Uzbek poet Abdulhamid Sulaymon ogli-Cholpon had a fiery appeal: “If literature lives, the nation lives!” These deeply meaningful words, which have stood the test of life and history, have not lost their meaning and value even today. Indeed, as long as literature, art, and culture survive, the nation, the people, and all of humanity live happily”[63]. The works written during the years of independence are diverse, not repeating each other in terms of artistic and aesthetic level, subject content, and method of description and narration. Unlike many artists who created during this period, Eshqobil Shukur entered our literature with his own unique tone and style. His works are distinguished by images that are considered folk pain, folk and unique new discoveries. In Eshqobil Shukur's poetry, the simple, concise method of expression characteristic of folk oral art is combined with folklore melodies. He has a place in the development of Uzbek poetry as a sought-after, talented and versatile poet. Although dissertations, scientific articles, and literary portraits have been created about the creator, many issues such as

[63]Мирзиёев Ш.М. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017, № 153.

the main features of the poet's work, including images and symbols, the function of the word, and the depiction of folk melodies, have not been studied as a separate object of research. This shows how important this dissertation is.

This dissertation research is based on the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4958 dated February 16, 2017 “On further improvement of post-secondary education”, No. PF-5847 dated October 8, 2019 “On approval of the Concept for the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030”, No. PF-5850 dated October 21, 2019 “On measures to radically increase the prestige and status of the Uzbek language as the state language”, as well as Resolutions No. PQ-3271 dated September 13, 2017 “On a comprehensive program of measures to develop the system of publishing and distributing book products, increase and promote the culture of reading and reading”, No. PF-3271 dated September 13, 2018 This dissertation research will serve to a certain extent in implementing the tasks set out in Resolution No. PQ-3652 of April 5 “On measures to further improve the activities of the Writers' Union of Uzbekistan”, the report of the President of the Republic of Uzbekistan at a meeting with representatives of the creative intelligentsia of Uzbekistan on August 3, 2017, the instructions to increase the influence of literature during his visit to the Alley of Writers in Tashkent on May 20, 2020, and other regulatory legal documents related to this activity.

The relevance of the research to the priority areas of development of science and technology in the Republic. The dissertation was completed in accordance with the priority direction of the republican science and technology development I. “Social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an information society and a democratic state, development of an innovative economy”.

Level of knowledge of the topic. In Uzbek literary studies, numerous studies have been conducted on the interpretation of artistic images, the scope of the subject, lyrical experiences, folk pathos, and folklore traditions in studies written on lyrical works[64]. However, the scope of Eshqobil Shukur's poetry, its genre characteristics, the

[64] Шарафиддинов О. Замон – қалб –поэзия. –Тошкент: Ўз Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1962; Ғафуров И. Лириканинг юраги. Адабий ўйлар. –Тошкент: Ёш гвардия, 1982; Қаҳрамонов Қ. Адабий танқид: янгиланиш жараёнлари. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009; Мамажонов С. Шеърият баҳсида. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1982; Акрамов Б. Шеърият гавҳари (Лирикада образ муаммоси). –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979; Қурбонбоев И.А. 90-йиллар ўзбек шеъриятида образлилик. Филол. фан. номз...дисс. –Тошкент: 2005; Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърияти бадиий тафаккури тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри...дисс. автореф. –Тошкент: 2017; Жабборов Н. Маърифат надир? – Тошкент: Маънавият, 2010; o‘sha muallif. Адабиёт ва миллий маънавият. –Тошкент: Маънавият, 2015; o‘sha muallif. Замон. Мезон. Шеърият. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015; o‘sha muallif. “Ўткан кунлар”да миллий руҳ ифодаси // Филология масалалари. –Тошкент: 2020, № 2. –Б. 35; Каримов Б. Жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд. –Тошкент: Университет, 2000; Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. –Тошкент: Фан, 2006; Ғаниев И., Афоқова Н. Озод руҳ фалсафаси. –Тошкент: Фан, 2007; Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологиясига доир// Ўзбек тили ва адабиёти.-1980. –№4. –Б. 37-45; Собиров О. Фольлор анъаналар ҳақида мулоҳазалар// Ўзбек тили ва адабиёти.-1968. –№6. –Б. 24-27; Афоқова. Н. Абдулла Орипов лирикасида бадиий санъатлар. Филол. фан. номз…. дисс. – Тошкент, 1997. – Б. 14; Шарипова Л. XX асрнинг 70-80-йиллари ўзбек шеъриятида фолклоризмлар. Филол. фан. д-ри...дис. автореф. –Тошкент, 2008; Пардаев З. Истиклол даври шеъриятида халкона пафоснинг янгиланиши. Филол.фан.б. фалс.док....(PhD) дисс.автореф. –Тошкент, 2020; Тажибаева Л. Янги ўзбек шеърияти генезиси ва тараққиёт тамойиллари. Филол.фан.б. фалс.док...(PhD) дисс.автореф. –Урганч, 2023; Mamayusupova S. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida folklorizmning o‘rni. Filol. fan.b. fals.dok...(PhD) diss.aftoref. –Jizzax, 2024; Ўсарова Л. Абдулла Орипов шеъриятида миллий руҳ ифодаси. Филол.фан.б. фалс.док...(PhD) дисс.автореф. –Тошкент: 2020; Абдулҳакимова О. Абдулла Орипов адабий-эстетик қарашлари. Филол.фан.б.фалс.док...(PhD) дисс. автореф. –Тошкент, 2022; Давлатова А. Абдулла Орипов

